

ABDULLA ORIPOVNING “NOMA” G‘AZALI SHARHI

Sanayev Mirsanjar, QarDUPI o‘qituvchisi

Luqmonova Ruxsora, QarDUPI Tillar fakulteti talabasi

REVIEW OF THE GHAZAL "NOMA" BY ABDULLA ORIPOV

Sanayev Mirsanjar,

QarDUPI Teacher

Luqmonova Rukhsora,

Student of the Faculty of Languages of QarDUPI

ABSTRACT

Oripov entered Uzbek poetry as the ambassador of a new breeze that started in the former Soviet society in the 60s of the last century. Starting with his first poems, he worked on the path to the establishment of a new poetic thought in national poetry; new views that began to appear in marriage, changes in the spiritual world of people, the need for freedom of thought and behavior determined the ideological content of Oripov's poems. Noma is one of the types of works written as a poetic letter, widespread in Eastern literature. Originally, the written names were in the form of a love letter written by a lover to a lover, and later they began to be used on various topics. Abdulla Oripov, "Navoi" of modern Uzbek poetry, also took this direction by using the name of a lover in the form of a ghazal and showed another side of the classical literary style.

Keywords: poem, literature, ghazal, poetic art, verse, genre.

Аннотация: Орипов вошел в узбекскую поэзию как посол нового дуновения, зародившегося в бывшем советском обществе в 60-х годах прошлого века. Начиная с первых своих стихов, он творил на пути утверждения новой поэтической мысли в национальной поэзии; новые взгляды, которые стали появляться в браке, изменения в духовном мире людей, потребность в свободе мысли и поведения определили идейное содержание стихов Орипова. Нома — один из видов произведений, написанных в виде поэтического письма, широко распространенный в восточной литературе. Изначально письменные имена были в виде любовного письма, написанного любовником возлюбленной, а позже их стали использовать на различные темы. Абдулла Орипов, «Навои» современной узбекской поэзии, также взял это направление, используя имя возлюбленного в форме газели, и показал другую сторону классического литературного стиля.

Ключевые слова: поэма, литература, газель, поэтическое искусство, стих, жанр.

ANNOTATSIYA

Oripov o‘zbek she‘riyatiga o‘tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she‘rlaridan boshlab milliy she‘riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo‘lida ijod qildi; turmushda paydo bo‘la

boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj Oripov she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi. Noma Sharq adabiyotida tarqalgan, she'riy maktub sifatida yoziladigan asar turlaridan biridir. Dastlab yozilgan nomalar oshiqning mashuqqa yozgan ishqiy maktubi ko'rinishda bo'lib, keyinchalik turli xil mavzularda qo'llanila boshlandi. O'zbek zamonaviy she'riyatining "Navoiy"si Abdulla Oripov ham g'azal ko'rinishida oshiq nomidan yorga atab noma bitib bu yo'nalishga qo'l urdi va mumtoz adabiyot uslubidagi yana bir qirrasini namoyon qildi.

Kalit so'zlar: noma, adabiyot, g'azal, she'riy san'at, misra, janr.

Mumtoz janrlardan biri bo'lmish g'azal janri Istiqlol davri adabiyoti uchun begona bo'lmasada, faollik nuqtayi nazaridan anchagina sust holatga kelib qolgan edi. Ammo shu davrning zabardast shoirlari harakati bilan yana mumtoz janrlar keng istemolga kiritildi. Shunday shoirlardan biri Abdulla Oripovdir. Shoirning g'azallari ichida "Noma" g'azali o'zining go'zalligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Avvalo, g'azalning o'ziga e'tibor qaratish lozim:

Biz tomonga, ey nigoro, ne balo, bir kelmading,
Ko'zlarimga bo'ldi dunyo tim qora, bir kelmading.

Kipriging o'q, tiyg'i lashkar, shul sabab sadpora dil,
Ustiga-ustak yaraldi ming yaro, bir kelmading.

Menga-ku lutf aylamabsan, o'zgalar ham noumid,
Ahli ag'yor ham bo'libdir, bas, ado, bir kelmading.

Subhidamda uchdi ohim kavkabistonga qadar,
Keldi-yu, tubsiz falaklardan sado, bir kelmading.

Sen nazar solgan chechaklardan ari bol emsa gar,
Aylar erdim ko'zga gardin to'tiyo, bir kelmading.

Bog'larimda sa'va xomush, qumrilar ham gungu lol,
Guftigo'ni o'rgaturga sen - go'yo, bir kelmading.

Bag'ritoshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun,
Tibda derlar: gohi dardga tosh davo, bir kelmading.

Senga turfa she'r bitibman, yo'l qarar Abdullaman,
Yaxshiyamki, noma bordir ishq aro, bir kelmading.

G'azal 8 baytlik bo'lib, balo-qora-yaro-ado-sado-to'tiyo-go'yo-davo-aro so'zlari qofiya, "bir kelmading" birikmasi radif vazifasini o'tab kelmoqda. Qofiyaga e'tibor beradigan bo'lsak, matla'ning ikkinchi misrasida boshqa qofiyalarga unchalik mos tushmagan, yani "qora" so'zi misradagi ritmni buzyapti. Matla'ni ruknlarga ajratib, vaznda qanday vazifa bajaryotganligiga e'tibor beramiz.

Biz tomonga, ey nigoro, ne balo, bir kelmading,

- V - - - V - - - V - - - V -
 Ko'zlarimga bo'ldi dunyo tim qora, bir kelmading.

- V - - - V - - - - V - - V -

Misralar ramali musammani mahzuf vaznini talab qilyapti, ammo ikkinchi misra keyingi hashvi aynan o'sha qofiya sababli buzilishga sabab bo'lyapti. "qora" so'zi azal-azaldan she'riyatda, ko'pincha, "qaro" tarzida ishlatilib kelingan. Bu so'z uning ham badiiy ham eskirgan ko'rinishlaridan biridir. Agar mana shu she'rda biz ham "qaro" so'zini ishlatsak, qofiya ham, vazn ham o'z o'rniga tushgan bo'ladi.

Biz tomonga, ey nigoro, ne balo, bir kelmading,
 - V - - - V - - - V - - - V -

Ko'zlarimga bo'ldi dunyo tim qaro, bir kelmading.

- V - - - V - - - V - - - V -

Ushbu o'zgartirishdan so'ng g'azalning vazni aniq bo'ldi. G'azalda yana oshiq-mashuqlik an'analari, ularning hissiyoti, portreti, kechinmalariga xos bo'lgan voqelik badiiy san'atlar orqali juda chiroyli ochib berilgan. Matla'da voqelik yorga murojaat bilan boshlanib, "ne balo bo'ldiki, kelmaysan, axir dunyo ko'zimga qorong'u bo'lib ketyaptiku" deya oshiq nola chekadi. Keyingi baytda tashbeh san'atini qo'llab, yor kipriklarini o'qqa, tizilib turgan lashkarlarning qo'lidagi tig'ga o'xshatadi. Bu o'qlar sababli oshiq yuragi yuz bo'lak (sadpora) ka bo'linib ketgan edi, ustiga-ustak yana mingta yara yaraldi, lekin yordan darak yo'q. Ushbu baytda "yara" va "yaryl" so'zlari o'zaro birgalikda shibhi ishtiyoq san'atini vujudga keltirmoqda. 5-baytdagi "gar" va "gardin" so'zlari ham ushbu san'atga misol bo'la oladi. G'azalning 6-baytida shoir forsiy tildagi so'zlarni ishlatish orqali juda ustalik bilan iyhom san'atini qo'llagan. Bu san'at "bir joyda bir so'zni ikki ma'noda qo'llash" [7:111] san'atidir. Iyhom san'atiga asos bo'layotgan so'z "go'yo" so'zidir. Iyhomda bir ma'no ko'rinib tursa ikkinchi ma'no yashirinroq bo'ladi. "go'yo" so'zining ko'rinib turgan ma'nosi qiyoslash, o'xshatish (xuddi, -dek) bo'lsa, ikkinchi ma'nosi fors-tojik tilidan tarjima qilinganda aytuvchi, gapiruvchi degan ma'noni bildiradi (masalan duogo'y so'zini misol qilish mumkin). Baytni ikki xil ma'noda talqin qilishdan oldin ikkinchi misrada kelgan yana bir forsiy so'zni tarjima qilish lozim, u ham bo'lsa "guftigo" so'zidir. Bu so'z aytmoq, gapirmoq so'zlarining ham darak, ham buyruq shakllarining birgalikda kelishidan hosil bo'lgan so'z bo'lib, bu o'rinda ma'no tushunarli bo'lishi uchun tabiiylikicha gapirmoq, aytmoq degan ma'noda olamiz. Xullas, baytdagi ko'rinib turgan ma'no quyidagicha, "bog'imdagi sa'va hamda qumrilar tildan qolgan (gungu lol) go'yoki sen kelib gapirish (guftigo)ni o'rgatishing kerak ediyu, bir bora kelmading" bo'lsa, yashirin ma'no ham shunga o'xshashroq "bog'imdagi sa'va hamda qumrilar tildan qolgan, sen – (ey) ularga gapiruvchi, aytuvchi – ularga gapirishni o'rgatishga, bir bora kelmading" ma'nosidadir. Birinchi manoda yor kelib gapirishni o'rgatmagani uchun qushlar tildan qolgan bo'lsa, ikkinchisida tildan qolgan qushlarni gapirishga o'rgatgani bir kelmaganligi fikri ilgari surilgan. G'azalning begona baytida oshiq yorni bag'ritoshlikda, uni xasta qilgach, undan uzoqlarga ketganlikda ayblaydi va tibbiyotdan misol keltirib, bazi bir kasalliklarga toshning davo ekanligini ammo yorning kelmaganligini aytadi. Oshiq yorni bag'ritosh degani uchun ikkinchi misrada toshning davoligini misol qilib ko'rsatgan. She'riyatda bunday misol keltirishlar tamsil san'ati namunasi hisoblanadi.

Bag'ritoshsan, xasta aylab, ham yiroq ketding nechun,

Tibda derlar: gohi dardga tosh davо, bir kelmading.

So'nggi bayt, maqta'da, oshiq yaxshiyamki oshiqlar orasida (noma) xat yozish odati bor ekan, yo'lingga qarab qancha she'r yozdim, ammo sen baribir bir kelmading deya she'riy nomasini yakunlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар, 4 жилдлик, 1-жилд.:Т – “Ғ. Ғулом”. 2000.
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар, 4 жилдлик, 3-жилд.:Т – “Ғ. Ғулом”. 2001.
3. Абдулла Орипов. Адолат кўзгуси (5-жилд).:Т – “Адолат”. 2005.
4. Абдулла Орипов. Қуёш бекати (6-жилд).:Т – “Шарқ”. 2010
5. Абдулла Орипов. Танланган асарлар, 7-жилд.:Т – “Ғ. Ғулом”. 2013
6. Абдулла Орипов. Нажот қалъаси.:Т – “Ғ. Ғулом”, 1980.
7. Дилмурод Қуронон. Адабиётшунослик луғати.Т – “Академнашр”, 2013.
8. Анвар Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати.:Т – “Шарқ”, 1999.